

XORAZM RAQSLARI TARIXI

Urazmetova Kurbanbika Gulmatovna

UzDXA Urganch filiali Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi.

Aminova Dilrabo Raximovna

UzDXA Urganch filiali 2-kurs talabasi

Ko‘palova Olmaxon Qadamboy qizi

UzDXA Urganch filiali 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada Xorazm raqslarining kelib chiqish tarixi, Xorazm raqslarining jo‘shqin, jozibadorligi, xalqchilligi, Xorazm raqslari, aynan, “Lazgi” raqsi haqida rivoyqt va afsonalar, bugingi kunda raqs san‘atiga bo‘lgan e‘tibor haqida tarixiy-ilmiy ma‘lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, ibtidoiy davr, totemizm, onemizm, tarix, ommaviy raqs, rivoyat, afsona, “lazgi”.*

Аннотация: *В данной научной статье представлены исторический и научные сведения об истории возникновения Хорезмских танцев, о живости, привлекательности и популярности Хорезмских танцев, о легендах и мифах о Хорезмских танцах, в частности о танце «Лазги», и о внимании, уделяемом танцевальному искусству в наши дни.*

Ключевые слова: *Хорезм, первобытный период, тотемизм, онемизм, история, массовый танец, легенда, миф, «лазги».*

Abstract: *This scientific article presents historical and scientific information about the history of the origin of Khorezm dances, the vivacity, attractiveness, and popularity of Khorezm dances, legends and myths about Khorezm dances, specifically the “Lazgi” dance, and the attention paid to the art of dance today.*

Keywords: *Khorezm, primitive period, totemism, onemism, history, mass dance, legend, myth, “Lazgi”.*

Xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san‘at muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab quvvatlash bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzurida madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiallari ham tashkil etildi.

Aynan mazkur sohalar orasida xoreografiya san‘atiga ham yurtboshimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilib, ko‘plab qaror va farmonlar chiqayotgani biz soha vakillarini yanada quvontirmoqda.

Prizidentimizning 2017-yil 3-avgust kuni ijodkorlar bilan uchrashuvidagi tashabbuslar xoreografiya san'atining yanada rivojlanishi uchun katta zamin yaratdi.

O'zbekistonda uchta Buxoro-Samarqand, Xorazm, Farg'ona raqs maktabi yo'nalishi bo'lib, bulaming har biri o'ziga xos uslubga egadir. Bular orasida Xorazm raqs san'atining o'ziga xos jihatlari borki bugungi kunda bu o'lka tarixi, madaniyati va san'atiga bo'lgan qiziqish yanada ortib bormoqda.

Uch ming yildan drtiq tarixga ega bo'lgan "Avesto" ga tengdosh raqs "Lazgi" haqida bugingi kunda san'atshunoslar, tarixchilar Xorazm raqs san'ati to'g'risida o'zlarining ilmiy ishlarini olib bormoqdalar. Bundan tashqari raqs san'ati namoyondalari, oddiy san'at ixlosmandlari ham lazgi kuyining vujudga kelishi haqida qiziqarli ma'lumotlarini berganlar. [1.3-8 bet].

Urganch shahrida yashagan 1890 yilda tug'ilgan Siddiq ota Masharipov "Lazgi" kuyining yaratilishi haqida ma'lumotlar beradi. "Ikki farishta, birinchisi insonlar- Odam Ato va Momo Havoni loydan yasab unga jon kiriti olmaganlar.

Shunda birdan ilohiy va o'ziga sehrlovchi ajoyib bir kuy yangraydi. Bundan ilhomlangan jon yasalgan inson gavdasi ichidan qattiq jang qilib shaytonni mayib- majruh qilib haydab chiqaradi va o'zi gavda ichiga kirib uni harakatga keltiradi. Jang bilan Odam Ato va Momo Havoga jon ato qilgan bu kuyga "Lazgi" deb nom qo'yanlar. Shuning uchun ham Xorazmda eng qadimgi zamonlardan buyon askarlar harbiy mashqlarda, urushlarda qo'lga kiritilgan zafarlami nishonlashda "Lazgi" kuyini chalib raqsga tushganlar. "Lazgi" bilan bog'liq "O'g'lon bola Lazgi" si ham bayramlarda, to'y va tomoshalarda xalqimizning sevib tomosha qiladigan, hatto ta'sirlanib raqsga tushib rohatlanadigan o'yini bo'lib qoldi.

Biz ta'riflab o'tgan "Lazgi" laming hammasida ham "Xorazm lazgi"sidagi harbiylik alomatlari ozmi-ko'pmi saqlanganligi ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga ularda tanimiz (jonga e'tiqod) alohida o'rin tutgan. M.O. Kosvenning ko'rsatishiga qaraganda ibtidoiy kishilar "Ovga yoki harbiy yurishga chiqish oldidan tushiladigan raqslar jismoniy tarbiya va mashq yoki o'ziga xos tuyg'u qo'zg'olish xarakteriga ega. Nihoyat ibtidoiy raqsning afsungarlik va totemizm bilan aloqadorligi shubhasizdir. [2.86-88 bet].

Xorazmda ibtidoiy jamoa davrida totemizm bilan bog'liq yuzaga kelgan "Xo'roz o'yini", "Ot o'yini", "Guspand o'yini", "Chag'alloq" kabi raqslaming bizning kunlarga o'ynalib kelinganligi kishi diqqatini o'ziga ko'proq jalb qiladi.

Bizning uchun eng muhimi Xorazmda eng qadimgi zamonlardan buyon yaqin kunlarga kelinloar boshlariga duziyli do'ppi (taxiya)lariga ukki parini qadab yurishlari, "Lazgi" raqslarini ijro qiluvchi raqqosalar hozirgi vaqtlarda ham do'ppilariga par qadab bezashlari fikrimizga muhim dalil bo'la oladi. Eramizning 5- 6 asrlariga oid Xorazm tangalariga tushirilgan san'atkor ayol do'ppisida ham ukki pari aks etgan. [2.67-73 bet].

"Lazgi" kuyi va raqsi haqida yana bir necha afsona va rivoyatlar og'izdan- og'izga o'tib yuradi. Xivaning mashhur raqqosi, jumhuriyatda xizmat ko'rsatgan artist Yusuf ota Jabborov hikoyasiga quloq tutsak.

Qadim zamonlarda Xorazm shahzodasi Hindistonga sayru-sayohat qiladi. Hindistonda sozanda va raqqosalar, shoir va fozillar, mergan va chavandozlar, pahlavon va qiziqchi masxarabozlar tarafma-taraf bo'lib kuch sinashganlar. Musobaqa va mushoiralarda Xorazmlik

qo'shiqchi, raqqos va raqqosalar shoir va pahlavonlar ham qatnashibdi. Hindlar Xorazmliklarning qo'shiq va g'azallariga unchalik ahamiyat berishmabdi-yu, raqs san'ati va pahlavonlar mahoratiga qoyil qolishibdi. Davraga raqqos va raqqosalar qayta va qayta taklif qilinaveribdi. Buning uchun Xorazmliklarga ko'pdan ko'p sovg'a salomlar va fil sovg'a qilibdi. Ular sovg'a salomni olishibdi-yu filni nobud bo'ladi deb qaytarishibdi. Shubdan so'ng raqqos va raqqosalar sharafiga oltindan haykal yasashni buyuribdi. [4. internet sahifalari].

Xorazm san'ati, raqs san'ati to'g'risida san'atshunos Sofiya Sobirova ham ko'pgina ilmiy maqolalar yozgan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" qasidalarini marosimlarda ijro qilishda ham Xorazm xalfalarining tutgan o'mi nihoyatda katta bo'lgan. San'atshunos Sofiya Sobirovaning ko'rsatishiga qaraganda "Avestoni" o'rganib zardushtiylik dinini targ'ib qilgan ayollar o'tmishda ham "Xalfa" deb yuritilgan. Xorazm xalfalari qo'shiq va raqslarining qadimiyligi, shubhasiz, xalfalar bizga faqat qadimiy marosim, ibodat kunlarini emas, balki, eng qadimiy "Lazgi" yo'llarini yetkazishda o'z hissalarini qo'shishgan.

Qadimda to'y va ziyofatlarda ayollar ichkarida bazm tashkil qiladigan bo'lganlar. Ayol-qizlarga xalfa san'atkorlar xizmat qilganlar. Ayol san'atkorlarga torli musiqa asbobini qo'llash man qilingan. Xalfalar lapar yallalami cholg'u asbobida emas, balki piyolalar, barmoqqa kiyiladigan angishvonalar, likopchalar, qayroq, bilakka taqiladigan zang ritmlariga jo'r bo'lib kuylab raqsga tushganlar. Xotin-qizlar qadimdan o'ynalib kelayotgan lazgilami ham ular yordamida qoyilmaqom qilib o'ynashga o'rganganlar. [5.44 bet]. [6.71 bet].

Biz bu mavzuni yoritish jarayonida Xorazm san'ati, madaniyati ayniqsa, raqs san'ati to'g'risida ko'pgina ma'lumotlarni o'rganishga erishdik. Bu maqolada nafaqat tarixchi va san'atshunos olimlar, balki, oddiy san'atga oshufta insonlarning ham raqs san'ati haqidagi bilimlari talaygina ekanligiga amin bo'ldik.

Hali Xorazm raqs san'atining biz bilgan va bilmagan ma'lumotlar borligiga ishonдик. Har bir Xorazmlik inson boy madaniyatga ega bo'lgan xalqi tarixini bilishi lozim. Bunday intilish insonning vatanparvarlik hissining yaqqol namunasi desak nihoyatda to'g'ri bo'ladi.

Suyukli xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Ibroyim og'a Yusupovning
Xorazm-u Qoraqalpoq ellari,
Soz suhbatni tavob etsa kerakdir,
Bobo Qambar, Oshiq oydin pirlari,
Oltin duo berib ketsa kerakdir. [1.166-167 bet].

Ha, darhaqiqat san'at olami eng go'zal olam, cheksiz hissiyotlar dunyosi ekan, biz bu olamga oshno bo'lib yashasak, albatta qalbimizda go'zallik chechaklari unib chiqishi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulasal Usmanova. O'zbek raqsini o'rganish uslubiyati. Toshkent 2020y. "Navro'z" nashriyoti.
2. To'ra Qilichev. Tanlangan asarlar. Urganch "Xorazm" 2020y.
3. Internet sahifalari.
4. S. Sobirova. "Xorazm lazgisi" "Yoshlik" jumali 1990y №4.
5. I. A. Akbarov "Musiqa lug'ati". G' G'ulom nashriyoti. 1987y.